

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KASBIY TALIM AGENTLIGI
KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**



**TA'LIM TASHKILOTI AMALIYOTCHI PSIXOLOGI HUQUQINI
BERISH BO'YICHA KASBIY QAYTA TAYYORLASH KURSINING
NAMUNAVIY O'QUV DASTURI**

Ta'lim turi:	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
Tinglovchilar toifasi	Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

Toshkent - 2026

Mazkur namunaviy o‘quv dasturi Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi namunaviy o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim
pedagogikasi” kafedrası katta
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan. 2026-yil
_____ -sonli bayonnoma.

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 5-noyabrda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-190-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qaroriva Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-sonli, 2023-yil 7-dekabrda “Professional ta’lim muassasalariga yil davomida o‘quvchilarni dual ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 647-sonli Qarorlari hamda Ta’lim tashkilotlari amaliyotchi psixologi huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilarning psixologiya sohasidagi fundamental bilimlarini chuqurlashtirish, psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixoterapiya va psixologik trening yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tayyorgarligini mustahkamlashni nazarda tutadi. Shuningdek, kurs kasbiy ta’lim muassasalarida zamonaviy psixologik xizmatni tashkil etish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, mustaqil professional faoliyat yuritish hamda raqobatbardosh amaliyotchi psixologlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ta’lim tashkilotlari amaliyotchi psixologi huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o‘quv dasturi quyidagi blokларidan iborat:

1. “Umumkasbiy fanlar”
2. “Ixtisoslik fanlari”
3. “Yakuniy attestatsiya”

Malaka oshirish kursning maqsadi va vazifalari

Ta’lim tashkiloti amaliyotchi psixologi huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining maqsadi - tinglovchilarda kasbiy ta’lim tashkilotlarida amaliy psixolog sifatida professional faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy

bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tinglovchilarda psixologiya fanining nazariy-metodologik asoslari, psixik jarayonlar, psixik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda inson xulq-atvorining umumiy qonuniyatlari bo'yicha puxta bilimlarni shakllantirish;

- psixologiya tarixi, yosh davrlari psixologiyasi, pedagogik psixologiya, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, differensial va rivojlanish psixologiyasi bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o'zlashtirish hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- kasbiy ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish va monitoring qilish bo'yicha zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish;

- ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ota-onalar hamda ma'muriyat bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tizimli faoliyat olib borish malakalarini rivojlantirish;

- shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, psixodiagnostik tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish, natijalarini tahlil qilish va psixologik xulosa tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish;

- psixologik testlardan foydalanish, ularni tanlash, moslashtirish, standartlashtirish va natijalarini ilmiy asosda interpretatsiya qilish kompetensiyalarini rivojlantirish;

- psixologik maslahat va kouching jarayonini professional darajada tashkil etish, mijoz bilan ishonchli aloqa o'rnatish, muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish;

- individual va guruh psixokorreksiya metodlarini qo'llash, emotsional, xulq-atvor va kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan korreksion dasturlarni ishlab chiqish malakalarini rivojlantirish;

- zamonaviy psixoterapevtik yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish, stress, inqiroz va murakkab psixologik holatlarda samarali psixologik yordam ko'rsatish kompetensiyalarini shakllantirish;

- psixologik treninglarni loyihalash, tashkil etish va o'tkazish, guruh dinamikasini boshqarish hamda interaktiv metodlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- xulqi og'ishgan bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, profilaktika, korreksiya va rehabilitatsiya ishlarini olib borish malakalarini shakllantirish;

- nizolarni aniqlash, tahlil qilish, oldini olish va konstruktiv hal etish, mediatsiya hamda muzokaralar olib borish bo'yicha konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish;

- psixolog kasbiy etikasi, maxfiylik, professional mas'uliyat va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilish madaniyatini shakllantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli vositalar va innovatsion platformalardan psixologik faoliyatda samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- tinglovchilarning ilmiy-tadqiqot olib borish, kasbiy refleksiya qilish, mustaqil ta'lim olish va o'z kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish;

- amaliyot (stajirovka) jarayonida nazariy bilimlarni real professional faoliyat bilan integratsiya qilish, mustaqil ravishda psixologik xizmat ko'rsatish tajribasini hosil qilish;

- kasbiy ta'lim muassasalarida amaliyotchi psixolog sifatida samarali, mas'uliyatli va innovatsion faoliyat yuritishga tayyor, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar

Qayta tayyorlash kursi o'quv rejasining "Umumkasbiy fanlar", "Ixtisoslik fanlari", "Yakuniy attestatsiya" bloklari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha Kasbiy ta'lim tashkiloti amaliyotchi psixologi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

O'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi kompetensiyalarga - bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- psixologiya fanining nazariy-metodologik asoslari, asosiy kategoriyalari, zamonaviy yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalarini;

- psixik jarayonlar, psixik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda inson xulq-atvorining umumiy qonuniyatlarini;

- yosh davrlari, pedagogik, ijtimoiy, differensial va rivojlanish psixologiyasining nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilish sohalarini;

- kasbiy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari, tamoyillari va texnologiyalarini;

- psixodiagnostikaning nazariy asoslari, metodologiyasi, diagnostik metodlarni tanlash mezonlari va natijalarni interpretatsiya qilish usullarini;

- psixologik testologiyaning psixometrik asoslari, testlarning validligi, ishonchliligi va standartlashtirish tamoyillarini;

- psixologik maslahat, kouching, psixokorreksiya, psixoterapiya va psixologik treningning zamonaviy yondashuvlari hamda texnologiyalarini;

- xulqi og'ishgan bolalar va o'smirlar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari, profilaktika va korreksiya usullarini;

- konfliktologiya asoslari, nizolarni boshqarish, mediatsiya va muzokaralar olib borish texnologiyalarini;

- psixolog kasbiy etikasi, maxfiylik tamoyillari, professional mas'uliyat va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatining metodologik asoslari, ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish usullarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- kasbiy ta'lim tashkilotida psixologik xizmatni rejalashtirish, tashkil etish va samarali amalga oshirish;

- ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ota-onalar va ma'muriyat bilan professional hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- psixodiagnostik tadqiqotlarni o'tkazish, mos metodikalarni tanlash, natijalarni qayta ishlash va psixologik xulosa tayyorlash;

- psixologik testlardan maqsadga muvofiq foydalanish va ularning natijalarini ilmiy asosda talqin qilish;

- individual va guruh psixologik maslahat hamda kouching mashg'ulotlarini tashkil etish;

- psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- stress, inqiroz va murakkab hayotiy vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish;

- psixologik treninglarni loyihalash, o'tkazish va guruh dinamikasini boshqarish;

- xulqi og'ishgan bolalar bilan diagnostik, profilaktik va korreksion ishlarni olib borish;

- nizolarni tahlil qilish, oldini olish va konstruktiv hal etish;

- psixologik hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobotlar tayyorlash va kasbiy faoliyat natijalarini baholash;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish;

- kasbiy ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni mustaqil tashkil etish va boshqarish;

- psixologik tashxis qo'yish, maslahat berish, korreksiya va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish;

- ta'lim tashkilotida sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim oluvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash;

- pedagoglar va ota-onalarning psixologik kompetentligini oshirishga ko'maklashish;

- kasbiy faoliyatda etik me'yorlar va huquqiy talablarni qat'iy qo'llash;

- mustaqil ilmiy izlanish olib borish, o'z faoliyatini tahlil qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash;

- amaliyotchi psixolog sifatida kasbiy vazifalarni mas'uliyat, tashabbuskorlik va innovatsion yondashuv asosida bajarish bo'yicha *ko'nikma va malakalarga* ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash kursining davomiyligi yetti oy, 1008 soatni tashkil etadi. toifasi bo'yicha ta'lim dasturlariga muvofiq fanlarni to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi diplom beriladi.

Ta'lim tashkilotlari psixologlari malakasini oshirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. UMUMKASBIY FANLAR

1.1. Psixologiya tarixi.

Psixologik tafakkurning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini, qadimgi davrlardan boshlab zamonaviy psixologik maktablar paydo bo'lishigacha bo'lgan ilmiy qarashlarni o'rganish. Antik davr mutafakkirlarining ruh va ong haqidagi qarashlari, Sharq va G'arb olimlarining psixologik merosi, ilmiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish jarayoni. Strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz, gumanistik va kognitiv psixologiya kabi asosiy yo'nalishlarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda amaliy ahamiyati tahlili. Psixologiya fanining taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlarning ilmiy merosi, ularning nazariy qarashlari va zamonaviy psixologiya rivojidadagi o'rnini keng yoritish.

1.2. Umumiy psixologiya.

Umumiy psixologiyaning nazariy-metodologik asoslari, inson psixikasining umumiy qonuniyatlari va mexanizmlari. Psixikaning mohiyati, ong va faoliyat birligi, psixik jarayonlar, psixik holatlar hamda shaxsning individual xususiyatlari. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol, nutq, emotsiya, iroda kabi asosiy psixik jarayonlarning tuzilishi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari. Inson faoliyati, motivatsiya, temperament, xarakter va qobiliyatlar masalalari.

1.3. Yosh davrlari psixologiyasi.

Inson psixik taraqqiyotining turli yosh bosqichlaridagi o'ziga xos xususiyatlari. Ontogenez jarayonida psixik rivojlanish qonuniyatlari, yosh davrlarini davrlashtirish tamoyillari hamda har bir bosqichning psixologik tavsifi. Go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik va keksalik davrlarida shaxs rivojlanishining kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlari. Har bir yosh bosqichida uchraydigan rivojlanish inqirozlari, ehtiyojlar, motivlar va tarbiyaviy yondashuvlar.

1.4. Pedagogik psixologiya.

Ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlari. O'qitish faoliyati, o'quv faoliyati, bilimlarni egallash mexanizmlari, o'quv motivatsiyasi va pedagogik muloqot masalalari. O'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali ta'limni tashkil etish, pedagogning

psixologik kompetensiyalari, sinf jamoasini boshqarish va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan psixologik muammolarni hal etish usullari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik asoslari.

1.5. Shaxs psixologiyasi.

Shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va namoyon bo'lishining psixologik qonuniyatlari. Shaxs tushunchasi, tuzilishi, rivojlanish omillari, ijtimoiylashuv jarayoni va o'z-o'zini anglash masalalari. Shaxsning ehtiyojlari, motivlari, qadriyatlari, yo'nalganligi, xarakteri, qobiliyatlari va individual uslubi. Turli shaxs nazariyalari, jumladan psixoanalitik, gumanistik, kognitiv va faoliyat yondashuvlari asosida shaxs rivojlanishining mexanizmlari.

1.6. Ijtimoiy psixologiya.

Insonning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori, shaxslararo munosabatlar va guruh jarayonlari. Muloqot psixologiyasi, ijtimoiy idrok, ijtimoiy ustanovkalar, liderlik, konformizm, guruh dinamikasi va jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlari. Shaxsning ijtimoiylashuvi, guruhdagi roli, nizolar, stereotiplar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari. Zamonaviy jamiyatda samarali muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari.

1.7. Differensial psixologiya.

Insonlar o'rtasidagi individual psixologik farqlar. Temperament, xarakter, qobiliyat, intellekt, emotsional barqarorlik va boshqa individual xususiyatlarning shakllanish omillari. Irsiyat va muhitning shaxs rivojlanishiga ta'siri, individual farqlarni o'lchash metodlari hamda psixologik tipologiyalar. Kasbiy tanlov, ta'lim va kadrlar boshqaruvida individual xususiyatlarni hisobga olishning amaliy ahamiyati.

1.8. Rivojlanish psixologiyasi.

Inson psixikasining butun hayot davomida shakllanishi va o'zgarish qonuniyatlari. Biologik, kognitiv, emotsional, ijtimoiy va axloqiy rivojlanish jarayonlari. Psixik rivojlanish nazariyalari, rivojlanish omillari, inqiroz davrlari va rivojlanish mexanizmlari. Shaxsning turli hayot bosqichlaridagi rivojlanish vazifalari va ularni qo'llab-quvvatlash usullari.

1.9. Andragogika.

Kattalar ta'limining nazariy, metodologik va amaliy asoslari. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning psixologik xususiyatlari, o'quv motivatsiyasi, hayotiy tajribasi va mustaqil o'rganish strategiyalari. Kattalar ta'limining tamoyillari, zamonaviy metodlari, interaktiv yondashuvlar va fasilitatsiya

texnologiyalari. Kasbiy rivojlanish, uzluksiz ta'lim va andragogning professional kompetensiyalari.

1.10. Psixolog etikasi va huquqiy asoslar.

Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish. Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish masalalari. Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari. Psixologning professional obro'si va etik madaniyatini shakllantirish.

1.11. Tanlov fan.

Tinglovchilarning kasbiy qiziqishlari, amaliy ehtiyojlari va mutaxassislik yo'nalishiga mos ravishda tanlanadigan ixtisoslashgan fan hisoblanadi. Mazkur tanlangan fan doirasida psixologiyaning dolzarb yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy tadqiqot metodlari yoki muayyan amaliy sohalar chuqur o'rganilishi mumkin. Tanlov fan tinglovchilarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, kasbiy ixtisoslashuvini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

II. IXTISOSLIK FANLARI

2.1. Kasbiy ta'limda psixologik xizmat.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish, boshqarish va samarali amalga oshirishning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganish. Psixologik xizmatning maqsad va vazifalari, uning normativ-huquqiy asoslari, kasbiy ta'lim tizimida psixologning o'rni va kasbiy kompetensiyalari. Ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ota-onalar hamda ma'muriyat bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixokorreksiya va rivojlantiruvchi faoliyat yo'nalishlari. Kasbiy yo'naltirish, kasbiy moslashuv, ta'lim muhitida yuzaga keladigan psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etish, psixologik xizmat hujjatlarini yuritish, ish rejalarini ishlab chiqish hamda psixolog faoliyati samaradorligini baholash. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy psixologik xizmatni tashkil etish va olib borish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

2.2. Psixodiagnostika.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish, baholash va tahlil qilish metodlari hamda texnologiyalari. Psixodiagnostikaning nazariy asoslari, rivojlanish tarixi, tamoyillari va etik me'yorlari. Psixodiagnostik

tadqiqotlarni rejalashtirish, maqsadga muvofiq metodikalarni tanlash, test, so‘rovnoma, suhbat, kuzatish, proyektiv metodlar va boshqa diagnostik vositalardan foydalanish usullari. Olingan natijalarni qayta ishlash, statistik tahlil qilish, interpretatsiya qilish hamda psixologik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmalari. Turli yosh davrlari, kasbiy faoliyat, ta‘lim va klinik amaliyotda psixodiagnostikaning qo‘llanish imkoniyatlari.

2.3. Psixologik testologiya.

Psixologik testlarni yaratish, moslashtirish, standartlashtirish va amaliyotda qo‘llashning nazariy hamda metodologik asoslari. Fan doirasida testologiyaning rivojlanish bosqichlari, test turlari, ularning tuzilishi va qo‘llanilish sohasi. Psixometrik ko‘rsatkichlar, jumladan validlik, ishonchlilik, reprezentativlik, standartlashtirish, normallashtirish va test natijalarini baholash mezonlari. Yangi testlarni ishlab chiqish bosqichlari, mavjud metodikalarni adaptatsiya qilish, ekspertiza o‘tkazish hamda test natijalarini interpretatsiya qilish. Psixologik testlardan ta‘lim, kasb tanlash, kadrlar saralash va psixologik maslahat jarayonida foydalanish imkoniyatlari.

2.4. Psixologik maslahat va kouching.

Insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar. Psixologik maslahatning nazariy asoslari, asosiy yo‘nalishlari, maslahat jarayonining bosqichlari va etik tamoyillari. Mijoz bilan ishonchli aloqa o‘rnatish, muammoni aniqlash, ehtiyojlarni tahlil qilish, maqsad qo‘yish, resurslarni safarbar etish va amaliy yechimlarni ishlab chiqish usullari. Kouchingning falsafasi, modellari, samarali savol berish texnikalari, motivatsiyani oshirish va shaxsiy samaradorlikni rivojlantirish vositalari. Turli yosh va kasb egalari bilan individual hamda guruh shaklida ishlash ko‘nikmalari.

2.5. Psixokorreksiya asoslari.

Shaxs rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan psixologik ta‘sir usullari. Psixokorreksiyaning nazariy asoslari, tamoyillari, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari. Individual va guruh psixokorreksiya metodlari, emotsional buzilishlar, xulq-atvor og‘ishlari, kommunikativ qiyinchiliklar hamda moslashuv muammolarini korreksiya qilish texnologiyalari. Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish, samaradorlikni baholash va natijalarni monitoring qilish masalalari.

2.6. Psixoterapiya.

Psixologik muammolarni chuqur tahlil qilish va bartaraf etishda qoʻllaniladigan ilmiy yondashuvlar hamda amaliy usullar. Psixoterapiyaning rivojlanish tarixi, asosiy maktablari va zamonaviy yoʻnalishlari. Psixoanalitik, kognitiv-bixevioral, geshtalt, ekzistensial, gumanistik va oilaviy terapiya yondashuvlari. Psixoterapevtik aloqa, terapevtik ittifoq, seansni tashkil etish, psixologik qarshilik bilan ishlash va terapiya samaradorligini baholash usullari. Psixoterapiyaning turli amaliy sohalardagi qoʻllanilishi.

2.7. Psixologik trening asoslari.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishga qaratilgan treninglarni loyihalash, tashkil etish va oʻtkazishning nazariy hamda amaliy asoslari. Trening tushunchasi, turlari, maqsadlari va vazifalari, trening guruhining shakllanish bosqichlari, guruh dinamikasi qonuniyatlari. Trenerning kasbiy kompetensiyalari, trening dasturini ishlab chiqish, interaktiv metodlar, mashqlar, rolli oʻyinlar, muhokamalar va refleksiya usullaridan foydalanish masalalari. Trening samaradorligini baholash va natijalarni monitoring qilish koʻnikmalari.

2.8. Xulqi ogʻishgan bolalar psixologiyasi.

Deviant va delinkvent xulq-atvorning psixologik mohiyatini, kelib chiqish omillarini va profilaktika choralarini oʻrganish. Xulq ogʻishining biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillari. Xulqi ogʻishgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati, oilaviy va ijtimoiy muhitining taʼsiri. Diagnostika, profilaktika, korreksiya va reabilitatsiya usullari, turli mutaxassislar bilan hamkorlik masalalari.

2.9. Konfliktologiya.

Nizolarning yuzaga kelish qonuniyatlari, rivojlanish bosqichlari va ularni boshqarish texnologiyalari. Konfliktlarning mohiyati, turlari, sabablari va funksiyalari. Shaxslararo, guruhlararo, tashkiliy va oilaviy nizolarning oʻziga xos xususiyatlari. Konflikt diagnostikasi, muzokaralar olib borish, mediatsiya, konstruktiv muloqot va nizolarni samarali hal etish strategiyalari. Konfliktlarning oldini olish va konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari.

2.10. Amaliyot (stajirovka).

Amaliyot (stajirovka) tinglovchilarning nazariy bilimlarini real professional faoliyat sharoitida mustahkamlashga xizmat qiladi. Amaliyot davomida psixologik xizmatni tashkil etish, psixodiagnostik tadqiqotlar oʻtkazish, psixologik maslahat berish, korreksion va rivojlantiruvchi

mashg'ulotlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Hujjatlarni yuritish, mijozlar bilan etik me'yorlarga rioya qilgan holda ishlash, kasbiy refleksiya olib borish va mustaqil professional faoliyatga tayyorgarlik masalalari amaliyotning asosiy mazmunini tashkil etadi.

III. YAKUNIY ATTESTATSIYASI

3.1. Kurs ishi.

Tinglovchilarning muayyan fan bo'yicha olgan nazariy bilimlarini mustaqil ravishda tahlil qilish, tizimlashtirish va amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan ilmiy-ijodiy ish hisoblanadi. Kurs ishini bajarish jarayonida tinglovchi dolzarb mavzuni tanlaydi, ilmiy manbalarni o'rganadi, nazariy qarashlarni tahlil qiladi, mavjud muammoni yoritadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Ishning mazmunida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, metodlari, asosiy natijalari hamda xulosalar aks ettiriladi. Kurs ishi tinglovchining ilmiy izlanish olib borish, tahliliy fikrlash, ma'lumotlarni umumlashtirish va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.2. Chiqish testi.

Ta'lim dasturi yakunida tinglovchilarning egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholash vositasi hisoblanadi. Test topshiriqlari o'quv rejasidagi asosiy fanlar mazmunini qamrab oladi hamda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Chiqish testi orqali fundamental tushunchalarni bilish, nazariy qoidalarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, muammoli holatlarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati baholanadi. Test natijalari tinglovchining dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirganini ko'rsatadi hamda yakuniy attestatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

3.3. Bitiruv malakaviy ish. Bitiruv malakaviy ish tinglovchining ta'lim dasturi davomida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil ilmiy-amaliy tadqiqot shaklida namoyon etuvchi yakuniy attestatsiya turi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishda dolzarb psixologik yoki pedagogik muammo tanlanadi, uning nazariy asoslari tahlil qilinadi, amaliy tadqiqot o'tkaziladi hamda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ish jarayonida muammoni aniqlash, tadqiqot metodlarini tanlash, empirik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, natijalarni ilmiy asoslash ko'nikmalari namoyon etiladi. Bitiruv malakaviy ish tinglovchining mustaqil professional

faoliyatga tayyorligi, ilmiy tafakkuri va kasbiy kompetensiyalarini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Fanlarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 5-noyabrda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158 son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘riida”gi 106-son Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda “Professional ta’lim muassasalariga yil davomida o‘quvchilarni dual ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 647-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23- oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-316-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Sog‘inov N.A. Ta’lim tizimida psixologik xizmat. -Toshkent: “Fan” 2021. 284 b.

2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. -Toshkent: “Universitet” 2022. 544 b.

3. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. -Toshkent: “O‘qituvchi” 2021. 368 b.

4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. -Toshkent: “Tafakkur” 2023. 312 b.

5. Nishonova Z.T. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. -Toshkent: “Voris-Nashriyot” 2022. 420 b.

6. To‘raqulov E.T. Psixologik maslahat va psixokorreksiya. -Toshkent: “Mumtoz so‘z” 2024. 286 b.

7. Odilov A., Eshchanov B. Professional ta'limda sifatni ta'minlash. - Toshkent: "TDPU" nashriyoti. 2023. 196 b.
8. Маклаков А.Г. Общая психология. -Санкт-Петербург, "Питер" 2022. 583 с.
9. Немов Р.С. Психология (Книга 1). Общие основы психологии. -Москва: "Юрайт" 2023. 726 с.
10. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию. -Москва: "АСТ" 2021. 352 с.
11. Выготский Л.С. Психология развития человека. -Москва: "Смысл" 2020. 1136 с.
12. Эриксон Э. Детство и общество. -Санкт-Петербург: "Питер" 2021. 448 с.
13. Божович Л.И. Личност и ее формирование в детском возрасте. - Москва: "Академический проект" 2022. 398 с.
14. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития. - Москва: "Академия" 2023. 656 с.
15. Реан А.А. Психология личности. -Санкт-Петербург: "Питер" 2022. 288 с.
16. Андреева Г.М. Социальная психология. -Москва: "Аспект Пресс" 2023. 363 с.
17. Маерс Д. Социальная психология. -Санкт-Петербург. "Питер" 2024. 800 с.
18. Илин Е.П. Дифференциальная психология. -Санкт-Петербург. "Питер" 2021. 701 с.
19. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. - Москва: "Логос" 2022. 320 с.
20. Змеёв С.И. Андрагогика: основы теории и технологии обучения взрослых. -Москва. "ПЕР СЕ" 2021. 256 с.
21. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. -Санкт-Петербург. "Питер" 2022. 384 с.
22. Анастаси А., Урбина С. Психологическое тестирование. -Санкт-Петербург: "Питер" 2021. 688 с.
23. Ялом И.Д. Теория и практика групповой психотерапии. -Санкт-Петербург: "Питер" 2023. 688 с.
24. Кочюнас Р. Основы психологического консультирования. -Москва: "Академический проект" 2022. 240 с.
25. Сидоренко Е.В. Тренинг коммуникативной компетентности. -Санкт-Петербург: "Реч" 2021. 208 с.
26. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности. -Санкт-Петербург: "Питер" 2022. 608 с.
27. Ансупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. -Санкт-Петербург: "Питер" 2023. 560 с.
28. Гришина Н.В. Психология конфликта. -Санкт-Петербург: "Питер" 2021. 576 с.

29. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. -Москва: “МЕДпресс-информ” 2022. 448 с.
30. Реан А.А. Психология девиантности. -Санкт-Петербург: “Питер” 2023. 320 с.
31. Зинкевич-Евстигнеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии. -Санкт-Петербург: “Реч” 2021. 310 с.
32. Шнейдер Л.Б. Профессиональная этика психолога. -Москва: “Юрайт” 2024. 187 с.
33. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner. -New York. “Routledge” 2020. 402 p.
34. Corey G. Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. -Boston: “Cengage Learning” 2024. 560 p.
35. Sommers-Flanagan J., Sommers-Flanagan R. Clinical Interviewing. - Hoboken: “Wiley” 2023. 696 p.
36. Kaplan R.M., Saccuzzo D.P. Psychological Testing: Principles, Applications, and Issues. -Boston: “Cengage Learning” 2023. 736 p.
37. Rogers C.R. On Becoming a Person. -London: “Constable” 2020. 420 p.
38. Beck J.S. Cognitive Behavior Therapy: Basics and Beyond. -New York. “Guilford Press” 2021. 414 p.
39. Corey G. Theory and Practice of Group Counseling. -Boston: “Cengage Learning” 2022. 512 p.
40. Koocher G.P., Keith-Spiegel P. Ethics in Psychology and the Mental Health Professions. -New York. “Oxford University Press” 2022. 624 p.

Internet manbalari:

1. <https://lex.uz>
2. <https://edu.uz>
3. <https://profedu.uz>
4. <https://kvri.uz>
5. <https://ziyonet.uz>
6. <https://natlib.uz>
7. <https://www.apa.org>
8. <https://psycnet.apa.org>
9. <https://www.udemy.com>
10. <https://www.verywellmind.com>
11. <https://www.psychologytoday.com>
12. <https://www.mindtools.com>